

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi.....	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari	230
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri.....	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari.....	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении.....	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	



SANOATLASHUVNING EKOLOGIK TA'SIRI VA “YASHIL” IQTISODIYOTGA O'TISHNING ASOSLARI

Nosir Maxmudov

TDIU, Makroiqtisodiy siyosat va
prognozlashtirish kafedrası professori, i.f.d.,

Lola Azimova

TTESI katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo an'anaviy iqtisodiyoti – “jigari rang” iqtisodiyot, xususan sanoatning rivojlanishi natijasida er sharining ekologik holati, atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarining vujudga kelishining bugungi iqtisodiy o'sishga ta'siri batafsil yoritib berilgan. “Yashil” iqtisodiyotning mazmun-mohiyati, tamoyillari va xususiyatlari hamda afzalliklari ochib berilgan. Global harorat ko'tarilishi prognoz ssenariylari va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganilgan hamda “yashil” iqtisodiyotga o'tish borasida xorijiy tajribalar tahlil qilinib, “yashil” iqtisodiyotga o'tishning yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: YaIM, sanoat, an'anaviy iqtisodiyot, “yashil” iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, iqlim o'zgarishlari, atrof-muhit.

Abstract: This article describes in detail the effect of the world's traditional economy - the "brown" economy, especially the development of industry, on the ecological state of the globe, environmental and climate changes, on today's economic growth. The essence, principles, characteristics and advantages of the "green" economy are revealed. Forecast scenarios of global temperature rise and its impact on economic growth are studied, and foreign experiences on the transition to a "green" economy are analyzed, and ways to transition to a "green" economy are proposed.

Key words: GDP, industry, traditional economy, "green" economy, economic growth, climate change, environment.

Аннотация: В данной статье подробно описано влияние мировой традиционной экономики – “коричневой” экономики, особенно развития промышленности, на экологическое состояние земного шара, изменения окружающей среды и климата, на сегодняшний экономический рост. Раскрыты сущность, принципы, характеристики и преимущества “зеленой” экономики. Изучены прогнозные сценарии глобального повышения температуры и его влияние на экономический рост, проанализирован зарубежный опыт перехода к “зеленой” экономике, предложены пути перехода к “зеленой” экономике.

Ключевые слова: ВВП, промышленность, традиционная экономика, “зеленая” экономика, экономический рост, изменение климата, окружающая среда.

KIRISH

Insoniyatning bugungi yashash sharoitida erishgan yutuqlari bir necha ming yillar davomida shakllandi. Shu davr ichida inson o'zining aql-idroki va aqliy mehnati bilan yashash darajasini yaxshilash uchun og'ir mehnatni texnika va texnologiyalar zimmasiga yukladi. Albatta, ular ixtiro qilindi, yaratildi va amalda keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, tobora ko'payib borayotgan insonlarning cheksiz ehtiyojlarini qondirish uchun mavjud resurslardan foydalanish hajmi va imkoniyatlari ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida iqtisodiyotni rivojlantirib, uni kengaytirib bordi.

Sayyoramizda ekologiyaning jiddiy ravishda buzilishi XX asrning 50–60-yillaridan boshlangan. Rivojlangan davlatlarda sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va kimyo tarmoqlari jadal sur'atlar bilan rivojlantirildi, shaharlar yiriklashib bordi. 20 milliondan 36 milliongacha aholisi bor Seul, Shanxay, Dehli, Jakarta va Tokio kabi shaharlar shakllandi. Energoresurslarga, ayniqsa, yoqilg'ilarga bo'lgan talab kun sayin ortib bordi.



Inson faoliyati natijasida oxirgi 100 yilda Yer shari bo'yicha ekiladigan yerlar maydoni to'rttdan bir qismga qisqardi. Uylar, korxonalar, inshootlar va yo'llar bilan yerlar band bo'ldi. Insoniyatning yog'ochga bo'lgan talabi hamda sodir bo'lgan yong'inlar sababli o'rmonlarning uchdan ikki qismi yo'q qilindi. Har yili ishlab chiqarish va xizmatlar uchun 20 trln. tonna resurslar harakatda bo'ladi. Bu esa atrof-muhitning buzilishiga olib kelmoqda, 10-15 mlrd. tonna kislorod kamayib bormoqda.

Buning natijasida hayvonot olamining ko'plab turlari yo'qolib ketmoqda. Dunyo bo'yicha (2010-yilda) 8300 turdagi hayvonlar mavjud bo'lib, oxirgi 30 yil ichida 8% yo'q bo'ldi. Sayyoramizdagi tropik o'rmonlarda 50 foizdan ortiq hayvonot olami yashar edi. Tropik o'rmonlar yer sharining 14 foizini tashkil etar edi (2010-yilda), hozir esa faqat 6 foizi qoldi.

Oxirgi 50 yil ichida Yer shari bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ichimlik suvi 60 foizga kamaydi. Har yili sanoatda foydalanilgan 150-160 km³ suv daryolarga va ko'llarga oqiziladi. Texnik xatolar va turli falokatlar tufayli har yili okeanlarga 25-30 mln. tonna neft tushadi. Sanoatda 1 tonna po'lat olish uchun 300 m³ suv, 1 tonna qog'oz ishlab chiqarish uchun 900 m³ suv ishlatiladi. Umumiy suvning 70% qishloq xo'jaligida, 20% sanoatda va 10% uy xo'jaliklarida sarflanadi. Prognozlarga ko'ra, 2030 yilga borib sayyoramizning 47% aholisi suv tanqisligi holatiga duch keladi.

Yuqorida qayd etilgan amaldagi holatlar, tabiat qonunlarini inobatga olmasdan qilingan insonlarning xatti-harakatlari natijasida global miqyosda "jigari rang" iqtisodiyoti degan tushuncha shakllandi. Insoniyat uchun bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri "jigari rang" iqtisodiyotdan "yashil" iqtisodiyotga o'tishdir. Chunki, hozirgi davrda iqlim o'zgarishlari bo'yicha strategik ustuvorliklar, jumladan, iqlim o'zgarishi bo'yicha milliy, mintaqaviy va global majburiyatlarning bajarilishi ham aynan "yashil" iqtisodiyotga o'tishning amaliy yo'nalishlaridandir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori bilan ustuvor yo'nalishlar sifatida (a) iqlim o'zgarishiga moslashish va tabiiy ofatlar xavfini boshqarish masalalarini milliy siyosatga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirishga va budjet jarayonlariga kiritish hamda (d) soliqlar va davlat xarajatlarining "yashil" iqtisodiyotga muvofiqligi va ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni baholash va oshkor qilish uchun "yashil" budjet metodologiyasini joriy etish – "yashil" ustuvor yo'nalishlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan soliqlar va davlat xarajatlari ulushini baholash uchun "yashil" budjet metodologiyasini joriy etish belgilangan [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

"Yashil iqtisodiyot" atrof-muhitni, bioxilma-xillikni va ekotizim xizmatlarini saqlash, "yashil" ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyatini va qashshoqlik muammosini hal etishni ta'minlovchi barqaror taraqqiyot masalalarini qamrab oladi [5].

N. Maxmudov fikricha, tabiatning tabiiy qonunlari bilan hisoblashmaslik natijasida dunyoda "jigarrang" iqtisodiyot degan tushuncha shakllandi. Bugun "jigarrang" iqtisodiyotdan "yashil" iqtisodiyotga o'tish insoniyat uchun hayot-mamot masalasidir. "Yashil" iqtisodiyot insonning tabiatga bo'lgan munosabatini muqobillashtirish asosida atrof-muhit tozaligini, tabiiy resurslar va ishlab chiqarilgan mahsulotlardan samarali foydalanish orqali turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi [6].

K. Daniekning fikricha, "yashil iqtisodiyot" iqtisodiyot va ekotizim o'rtasidagi munosabatlardan iborat bo'lib, tezkor barqaror rivojlanishning asosi hisoblanadi. Albatta, aksariyat ta'riflarda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot alohida ko'rsatilgan bo'lsa-da, ayrim nazariyalarda "yashil iqtisodiyot" barqaror rivojlanish bo'yicha belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan vosita sifatida tavsiflanadi [7].

"Yashil iqtisodiyot" atamasi birinchi marta ingliz iqtisodchisi Pierce tomonidan 1989-yilda "Green Economy Blue Book" nomli kitobida qayd etilgan. Muallifning ta'kidlashicha, tabiiy resurslarning kamayishi, agar iqtisodiy kengayish mavjud tabiiy resurslar chegarasidan oshib ketsa, iqtisodiy o'sish doimiy turg'unlikda bo'ladi [8].

"Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi esa 1989-yilda "Yashil iqtisodiyot uchun loyiha" hisobotida paydo bo'lgan va u Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy ahvolini yaxshilash yuzasidan ekspertlar fikr-mulohazalarining asosini tashkil etgan. Keyinchalik esa tabiiy muhitni asrash va jamiyat hayoti sifatini yaxshilashning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda "yashil" iqtisodiyot bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari nazariy jihatdan chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar va sohaga oid tashkilotlar olib borayotgan ilmiy nazariyalar o'rganilgan. Tadqiqotda ilmiy tahlil, mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash, jadval, taqqoslash va statistik kuzatuv kabi usullardan keng foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Albatta, bugungi taraqqiyot talofatlarsiz bo'lmadi. Ushbu rivojlanish darajasi, ixtirolar va kashfiyotlarning natijasi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni qay darajada o'zgartirdi?

Inson tabiat bilan yashaydi, tabiiy resurslar insonni oziqlantiradi, kiyintiradi, havo bilan nafas oladi. Ulardan samarali va me'yorida foydalanish orqali yashash darajasi yaxshilanadi, uzoq umr ko'rishi ta'minlanadi. Tabiatning rivojlanish qonunlari va qonuniyatlari bor, va ularni inson doim inobatga olishi lozim.

Insonning ham yaxshi yashashi uchun o'zining qonunlari va qonuniyatlari mavjud. Inson va tabiat shu ikki guruh qonunlari va me'yoriy hujjatlar asosida yashab, faoliyat ko'rsatishi kerak. Rus olimi, professor M.Ya. Lemeshevning bu borada e'tiborga molik fikri bor: "Insoniyat tabiat qonunlari asosida yashashi va rivojlaniishi lozim. Agar inson tabiat qonunlarini inobatga olmasa, tabiat insonni jazolaydi." Bunga yaqqol misol sifatida bugungi iqlim o'zgarishlarining iqtisodiyotga ta'sirini keltirish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Global harorat ko'tarilishi prognoz ssenariylari va ularning ta'sirida YaIMning yo'qotilishi [12].

	2° S dan past (Parij kelishuvi)	2° S dan yuqori	2,6° S dan yuqori	3,2° S dan yuqori
Jahon (YaIM)	- 4,2 %	- 11,0 %	- 13,9 %	- 18,1 %
Shimoliy Amerika	- 3,1 %	- 6,9 %	- 7,4 %	- 9,5 %
Janubiy Amerika	- 4,1 %	- 10,8 %	- 13,0 %	- 17,0 %
Evropa	- 2,8 %	- 7,7 %	- 8,0 %	- 10,5 %
Yaqin sharq va Afrika	- 4,7 %	- 14,0 %	- 21,5 %	- 27,6 %
Osiyo	- 5,5 %	- 14,9 %	- 20,4 %	- 26,5 %

Iqlim o'zgarishlarining eng katta ta'siri shundaki, agar global harorat 3,2°S ga ko'tarilsa, 2050-yilga borib butun dunyo iqtisodiyoti YaIMning 18 foizini yo'qotishi mumkin. Jumladan, mazkur prognoz ssenariylari bo'yicha iqlim o'zgarishining ta'siri Osiyo mamlakatlari iqtisodiyoti uchun eng og'ir kechishi mumkin. Ya'ni, eng yaxshi ssenariyda YaIMga 5,5 %, og'ir ssenariyda esa 26,5 % ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi tahlillar birgina global harorat ko'tarilishiga asoslangan bo'lsa, tabiatga insoniyatning boshqa xatti-harakatlari, jumladan, atrof-muhitni ifloslantirish (chiqindi va issiqxona gazlari chiqarish), yashil dunyoni yo'q qilish (o'rmonlarni kesish) kabi ekologik muammolarni ham hisobga olsak, buning oqibati yanada og'ir bo'lishi haqiqat ekanini to'liq anglashimiz mumkin. Shu bois, bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan yuqoridagi salbiy ta'sirga ega "jigarrang" iqtisodiyotdan chiqindilar va uglerod bilan tabiatni ifloslantirishni kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, biologik xilma-xillik va ekotizim yo'qolishining oldini olish hamda inson hayotining barqaror farovonligini ta'minlashga qaratilgan "yashil" iqtisodiyotga o'tishga amaliy harakatlar boshlangan.

Elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy davlati yetakchi o'rinni egallaydi, ayniqsa, "yashil" energiya bo'yicha yuqori darajadagi tajribaga ega. Umumiy elektrobalansda yashil energiya GESlar bilan birlikda 20-22 foizni tashkil qiladi. Shamol energiyasi bo'yicha Xitoy 2015-17-yillarda dunyoda birinchi o'rinni egallagan edi. Xitoyda (2015 y.) 20 ta yirik gidroelektrostansiya va 45 mingta kichik GES mavjud bo'lib, ular 52 GVt elektroenergiya ishlab chiqaradi. 2030-yilga borib ekologik toza energiya miqdorini 50 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari sanoati rivojlangan, issiqlik energetika resurslariga boy mamlakat bo'lib, uning 15 shtatida ko'mir qazib olinadi, 26 ta shtatida mashinalar ishlab chiqariladi, elektronika sohasi rivojlangan, yo'lovchi tashiydigan samolyotlarning 55-60 foizi shu mamlakatda ishlab chiqariladi. AQShda bir yilda 3 trln. kVt/soat elektroenergiya ishlab chiqariladi va uning 80 foizi xususiy elektrostansiyalarga to'g'ri keladi. Elektroenergiyaning 60 foizi IESlarda, 20 foizi AESlarda va 20 foizi gidroelektrostansiyalarda hamda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan olinadi [13]. Umumiy elektroenergiyaning 60-65 foizi issiqlik elektrostansiyalari hisobiga to'g'ri keladi. Quyosh energiyasi asosida elektroenergiya ishlab chiqarishni 2030-yilda 15 foizga, 2050-yilga borib esa 27 foizga yetkazish rejalashtirilgan. AQShda energoresurs sifatida bioyoqilg'ilar keng qo'llaniladi. Buning uchun makkajo'xoridan keng foydalaniladi. Transport yoqilg'ilariga 30 foizgacha makkajo'xoridan olingan bioyoqilg'i qo'llaniladi. AQShda 2022-yilda 136 mln. litr bioyoqilg'i yetkazish rejalashtirilgan. Ushbu holat transportdagi ekologik muammolarning ma'lum darajada echimini topishga yordam beradi, chunki bioyoqilg'ilardan kamroq zaharli gazlar chiqadi. AQShda chiqindilarni qayta ishlaydigan texnologiyalar ishlab chiqiladi va eksport qilinadi.



Avstriyada va Isroilda suvni tozalash texnologiyalari, Daniyada muqobil energiya ishlab chiqarish texnologiyalari, Germaniya va Xitoyda havoni tozalaydigan texnologiyalar, Ispaniya va Daniyada quyosh energiyasi bo'yicha texnologiyalar ishlab chiqarish va eksport qilish keng yo'lga qo'yilgan.

Rossiya tabiiy resurslarga boy mamlakat hisoblanadi. Barcha mamlakatlardak Rossiyada ham energoresurslarga bo'lgan talab yildan-yilga oshib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda, "Rossiyaning 2035-yilgacha bo'lgan energetika strategiyasi" qabul qilindi. Sayyoramizning 22 foiz o'rmonlari Rossiya Federatsiyasiga tegishli. Rossiya ko'p miqdordagi suv zahirasiga ega, dunyoning 20 foiz ichimlik suvi shu mamlakatda joylashgan [9]. Rossiyaning issiqlik energetika kompleksi mamlakat iqtisodiyotining asosiy qismini tashkil etadi, ya'ni yalpi ichki mahsulotning 26-28 foizi shu kompleksga to'g'ri keladi. Mamlakat eksportining 70 foizi issiqlik energetika kompleksiga to'g'ri keladi. Rossiya katta miqdordagi gaz zahirasiga ega bo'lib, dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Rossiya hududining kengligi quyosh energiyasidan yanada ko'proq foydalanishga imkoniyat yaratib beradi. Quyosh elektrostansiyalarining umumiy quvvati 2019-yil bo'yicha 550 MVtni tashkil qiladi. Shamol elektrostansiyalarining umumiy quvvati esa 94,0 MVtni tashkil etadi. Mamlakat miqyosida gidroelektrostansiyalarda ishlab chiqarilayotgan elektroenergiya salmoqli bo'lib, uning umumiy hajmining 20 foizini tashkil qiladi [10]. Rossiya Federatsiyasida chiqindilar eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Har bir rossiyalik bir yilda 450-500 kg chiqindi hosil qiladi, mamlakat bo'yicha yiliga 70-75 mln. tonna chiqindi chiqadi. Shundan 20-25 % qayta ishlanadi. Qolgani keng hududdagi yerlarni egallamoqda. Agar 2019-yilda chiqindi bilan band yer 5,2 mln. gektarni tashkil qilgan bo'lsa, prognozlariga ko'ra, 2026-yilda 8,0 mln. gektar yer chiqindi bilan band bo'lishi kutilmoqda. Jahon tajribasiga tayangan holda aytish mumkinki, an'anaviy iqtisodiy rivojlanish asosan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga e'tibor qaratadi [11]. "Yashil" iqtisodiyot esa an'anaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ekologik natijalarni yaxshilaydigan iqtisodiyotni shakllantirish uchun moslashtiradi. Boshqacha aytganda, "yashil" rivojlanish bu – barqaror rivojlanishdir. Ya'ni, "yashil" o'sish iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirishni anglatadi. Bugungi kunda "yashil" iqtisodiyot asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri global ekologik-energetik keskinlashuv bo'lib, bu energiya iste'molining oshishi, an'anaviy energiya resurslarining kamayishi va ularning narxining ko'tarilishi hamda an'anaviy energetika sanoatining salbiy ekologik ta'sirining oshib borishi bilan bog'liq. Shu bois, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga o'tish zarurdir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ham "yashil" iqtisodiyotga o'tish zarurligini bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri ekanini ta'kidlaydi. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqlari [4], "Evropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo bog'liqligi: barqaror rivojlanish uchun global darvoza"dagi nutqlari, Orol bo'yi hududlarini ko'kalamzorlashtirish g'oyasi, ayniqsa "Yashil makon" dasturi Prezidentimizning g'oyalari asosida shakllangan dasturlardan biridir. Shuningdek, selektor yig'ilishlarida doimiy ravishda ushbu maqsadga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish belgilangan [2]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi qabul qilingan bo'lib, mazkur strategiyaning 51-maqsadi "Yashil" iqtisodiyotga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish" deb belgilangan [3]. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVtga yetkazish hamda jami iste'moldagi ulushini 40 foizga yetkazish va sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish hamda "ekologik markirovkalash" amaliyotini joriy etish alohida belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi ishlab chiqildi. Unda belgilanishicha, issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish; qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqarish quvvatlarini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish; iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish; yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiq kengaytirish kabi bir necha o'nlab aniq vazifalar belgilab berildi.

Yuqoridagi vazifalarning amaliy ijrosi allaqachon boshlab yuborilgan. Xususan, Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 27-dekabr kuni O'zbekistonning Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida 5 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyasini ishga tushirish va tarmoqqa ulashga bag'ishlangan marosimda ishtirok etib, mazkur quyosh va shamol elektr stansiyalarining birinchi bosqichi ishga tushirildi. Ularning umumiy quvvati 2400 MVtni tashkil qiladi. Mazkur investitsiya loyihalarining hamkorlari "Masdar" (BAA), "China



Energy Engineering Corporation” (Xitoy), “China Energy International Group”, “China Gezhouba Group” va “SEPCO III, Dongfang Electric Corporation” kompaniyalari hisoblanadi [14].

Bir soʻz bilan aytganda, ekologik muammolarning salbiy taʼsirini yumshatish va “yashil” iqtisodiyotga oʻtish Oʻzbekiston uchun ham davr talabi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizning “yashil” iqtisodiyotga oʻtishi va ekologik muammolarning yechimini tezroq hal qilish uchun, birinchidan, energoresurslar, suv va yer kabi resurslardan tejamkorlik bilan samarali foydalanish; elektroenergiya ishlab chiqarishga va chiqindilarni qayta ishlashga investitsiyalar jalb qilish asosida davlat, xususiy-sherikchilik va xususiy korxonalarni tashkil qilish lozim. Ikkinchidan, xalqimizning ekologik savodxonligini, bilimini va ekologik dunyoqarashini yanada kengroq shakllantirish kerak. Aksariyat hollarda koʻpchilikka ekologiya haqida gapirilsa, ularga bu yangilikdek tuyuladi. Chunki har bir inson eng dolzarb boʻlgan ekologik holat va uning kelajakdagi oqibatlarini haqida yetarli darajada axborot va bilimga ega emas. Amerika Qoʻshma Shtatlarida 1965-yildan boshlab, maktab yoshidagi bolalar tabiatga boʻlgan munosabat va ekologik muammolar asosida tarbiyalanadilar. Har bir insonning turmush tarzi, uning sogʻlom boʻlishi va uzoq umr koʻrishi bevosita ekologik holat bilan bogʻliq. Ekologiya bilan bevosita shugʻullanadigan mutasaddi tashkilotlar bor, ekologik siyosiy partiyalar va deputatlar mavjud. 2021-yilda mamlakatimizga kutilmaganda mayin chang kirib keldi, bu holat yaqin 60–70-yilda roʻy bermagan. Uning asorati haligacha mavjud. Ushbu holat boʻyicha chang qaerda keldi, inson sogʻligi uchun nima qilish kerak, ertangi holat qanday boʻladi kabi savollarga mutasaddi tashkilotlarning xodimlari va mutaxassislari tomonidan yetarli darajada javob va koʻrsatmalar berilmadi. Na televideniya, na matbuotda butun Oʻzbekistonni qamrab olgan holda baho berilmadi. Bu bitta misol, xolos. Xalqimiz oʻrganishi va amal qilishi kerak boʻlgan ekologik muammolar bisyor. Fikrimizcha, ushbu masalani yechimini topish uchun innovatsion yondashuv asosida bilim berishning barcha pogʻonalaridan, yaʼni maktabdan, oliy taʼlim tizimi faoliyatidan hamda televideniya va matbuotdan keng foydalanilsa, maqsadga muvofiq boʻladi. Uchinchidan, “yashil” iqtisodiyotga oʻtish keng qamrovli, koʻplab yoʻnalishlarga ega murakkab jarayon. Atrof-muhitning ekologik holati, alternativ energiya manbalaridan elektroenergiya ishlab chiqarish, “yashil” transport, chiqindilarni qayta ishlash va “yashil” texnologiya, yer va suvga boʻlgan inson munosabatlari shu yoʻnalishlardadir. Yana taʼkidlash joizki, bu muammolar har bir hududning oʻziga xos xususiyatlari va sharoitlaridan kelib chiqib, alohida yondashuvni talab qiladi. Bu sohada xorijiy tajribalarni oʻrganib, Oʻzbekistonda qoʻllash zarur vazifalardan biri hisoblanadi. Bularning barchasi innovatsion yondashuv va ilmiy-tadqiqot ishlarini keng yoʻlga qoʻyishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, Oʻzbekistonda “yashil” iqtisodiyot va ekologiya boʻyicha keng salohiyatga ega boʻlgan ilmiy-tadqiqot institutini shakllantirish maqsadga muvofiq boʻladi. Bu institut oliy taʼlim muassasalaridagi mavjud “ekologiya” kafedralari bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan bir qatorda, ekologik targʻibotchilik asosida xalqimizning ekologik savodxonligini oshirish vazifalarini oʻz ichiga olgan dasturlar asosida faoliyat koʻrsatishi lozim.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, 2022–2023-oʻquv yilidan boshlab Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistraturasida “Yashil iqtisodiyot” yoʻnalishi oʻqitilmoqda. 2023-yilning may oyida “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasida tashkil etilib, 2023/2024 oʻquv yilidan boshlab “Iqtisodiyot (yashil iqtisodiyot)” bakalavriat taʼlim yoʻnalishi ochilib, 52 nafar talaba oʻqishga qabul qilindi. Shuningdek, universitetda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va ommabop oylik jurnali tashkil etildi.

“Yashil iqtisodiyot” va ekologik muammolar bilan shugʻullanayotgan mutasaddi tashkilotlar tomonidan mavjud muammolar boʻyicha ilmiy seminarlar va tadbirlar oʻtkazilgan boʻlishi mumkin. Lekin mamlakatimiz miqyosida yoki xalqaro darajada ilmiy anjumanlar oʻtkazilganligi, oliy taʼlim tizimidagi mutaxassislar va olimlar bilan yetarli darajada hamkorlikda faoliyat koʻrsatmayotganligi koʻzga tashlanmayapti. Inson sogʻligʻi ekologik muammolar bilan bevosita bogʻliqligini inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi ham ushbu faoliyatga bosh-qosh boʻlishi lozim.

Toʻrtinchidan, ekologik muammolarni ijobiy hal qilish shu soha mutaxassislari, boshqaruvchilari va xalqimiz bilan birgalikda amalga oshiriladi. Demak, suv tarkibini buzmaslik, undan tejab foydalanish, “toza” elektroenergiya ishlab chiqarish va undan tejamkorlik asosida foydalanish, atrof-muhitni yaxshilash, yerdan unumli foydalanish va uning tarkibini yaxshilash, chiqindilarga boʻlgan munosabatni toʻgʻri shakllantirish har bir fuqaroga bogʻliq.

Demak, “yashil” iqtisodiyotga tezroq oʻtish va mavjud ekologik muammolarni hal qilish uchun, iqtisodiy mexanizmlarni ilmiy va amaliy jihatdan qanoatlantirilgan holda tezroq qoʻllash lozim boʻladi. Yaʼni, foydalaniladigan resurslar meʼyori va narxlari asosida imtiyozlar va jarimalar tizimini takomillashtirib, keng koʻlamda amalda qoʻllanilsa maqsadga muvofiq boʻladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг “яшил” иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида” 2022 йил 2 декабрдаги ПҚ-436-сон қарори. <https://lex.uz/docs/6303230>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон - 2030” стратегияси тўғрисидаги ПФ-158-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/6600413>
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 76-сессиясидаги нутқлари. <https://president.uz/uz/lists/view/4633>
5. Исажанов А. “Яшил иқтисодиёт”: хусусиятлари ва ривожланиш омиллари // Иқтисодиёт ва таълим / 2020 № 1, 15 б.
6. Махмудов Н. Яшил иқтисодиёт – муҳим ҳаётий зарурат // “Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт” электрон журнали. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
7. Daniek K. Green economy indicators as a method of monitoring development in the economic, social and environmental dimensions // *Social Inequalities and Economic Growth*, no. 62 (2/2020), pp. 151-152.
8. Wang Y., Li Y., Zhu Z., Dong J. Evaluation of green growth efficiency of oil and gas resource-based cities in China. *Clean Techn Environ Policy*. (2021) 23:1785–95.
9. Новак А.В. Основные положения энергетической стратегии России до 2035 года // Выпуск, 2. 2014, 7 с.
10. А.Нигматов ва бошқ. Барқарор ривожланиш ва унинг тизимли индикаторлари. Монография. – Т.: “Spectrum Media Group”, 2015. – 120 б.
11. Qosimov A. Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши – тўртинчи саноат инқилобининг асоси // Архив научных исследований. – 2021. – Т. 37. – №. 1.
12. <https://www.weforum.org>
13. <https://nap.nationalacademies.org>
14. <https://president.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

